

VOLEYBOL BO‘YICHA O‘QITUVCHI-MURABBIY MODELI

Turg‘unboyev Mansur Mamarafiqovich

Andijon davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti

Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasida o‘qituvchisi.

Voleybol bo‘yicha trener-murabbiyning kasb faoliyati o‘z mohiyati va mazmuni bilan o‘zga pedagogik ixtisosga munosib bo‘lgan (o‘qituvchi, yo‘riqchi, tashkilotchi) mutaxassislardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ixtisoslik fanini talqin qilishdan avval murabbiyning ko‘p qirralik faoliyati namunaviy nusxasini – modelini va uni mazmuniy mohiyatini ko‘rib chiqish lozim.

Model - fransuzcha so‘z bo‘lib, nusxa, andoza, namuna kabi tushunchalarni anglatadi.

Mutaxassis “modeli” 3ta asosiy tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, jamiyatning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy siyosiy yo‘nalishi va kasbga bo‘lgan ixlos-qiziqish xususiyatlariga bog‘liqdir.

Mutaxassis “modeli” jismoniy tarbiya institutlarini bitiruvchi sport turlari bo‘yicha o‘qituvchi-trenerlar kasbining ish mazmuni va ularga qo‘yiladigan talablar bilan ifodalanadi.

Mazkur soxa mutaxassisi o‘quv rejasida qayd etilgan o‘quv fanlarini umumiy va maxsus yo‘nalishini, ma‘muriy ko‘rsatmalarini, jismoniy tarbiya va sportga oid 1992 yil 14 yanvarda qabul qilingan Qonun mohiyatini hamda barcha dasturiy va shahodatlash hujjatlarini bilishi, ularni amaliyotga tadbiiq qila olishi darkor. Murabbiy ommaviy sport razryadlariga loyiq voleybolchilarni tayyorlash, sport o‘rinbosarlari va yuqori malakali sportchilarni yetishtirish tadbirlarini, mashg‘ulotlarni tashkil qilish texnologiyasini o‘zlashtirgan bo‘lish zarur.

Voleybol ixtisosi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar 4 (kunduzgi bo‘lim) va 5 (sirtqi bo‘lim) yil davomida nazariy, amaliy va uslubiy mashg‘ulotlar yordamida voleybolga oid bo‘lgan barcha bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar. Jumladan, nazariy mashg‘ulotlarda voleybolni vujudga kelishi, rivojlanish tarixi hamda zamonaviy voleybolni ahvoli haqida bilim beriladi. Mazkur malakalar O‘zbekiston misolida chuqurroq o‘rganiladi. O‘yinning texnik, taktik, psixologik, jismoniy tayyorgarligi, ularni mohiyati va mazmuni ixtisoslik fanining asosiy mavzulari bo‘lib hisoblanadi. O‘quv trenirovka jarayonini tashkil qilish va boshqarish, o‘rgatish va takomillashtirish texnologiyasi, musobaqa qoidasi va hakamlik qilish uslubiyati, musobaqa o‘tkazish, ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘rganishga oid materiallarga alohida e‘tibor beriladi.

Ixtisoslik fanining muhim tarkibiy qismlaridan biri o‘quv jarayonida o‘quv amaliyotini tashkil qilish hamda o‘qishdan ajralmagan holda pedagogik va tashkiliy-trenerlik kasbi (o‘qituvchi, trener, tashkilotchi) sirlarini o‘rganish, unga xos malaka va ko‘nikmalarni egallashdan iborat. Pedagoglik san‘ati, ayniqsa, o‘rta maktablarda, sport maktablarida, sport jamiyatlarida o‘tkaziladigan tashkiliy trenerlik amaliyotlarida shakllantiriladi, mukammallashtiriladi. Voleybol bo‘yicha o‘quv-trenirovka

sho‘balariga, BUSMlarga tanlov uslublari va mashqlari (testlari) asosida iste‘dodli bolalarni jalb qilish masalalari ixtisoslik fanidan joy olgan.

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar olgan bilimlari haqidagi ma‘ruzalar va axborotlar tayyorlaydilar.

Turli shaklda olib boriladigan mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar test talablari asosida ballar bo‘yicha shahodatlanadilar (faqat kunduzgi bo‘lim talabalari).

Bundan tashqari ixtisoslikning qo‘shimcha yo‘nalishlaridan biri mustaqil tayyorgarlik va sport - pedagogik mahoratini takomillashtirish tadbirlarini amalga oshiradilar.

Sport-pedagogik mahoratini takomillashtirish mashg‘ulotlari fakultativ (darsdan tashqari) barcha kurslar davomida muntazam o‘tkaziladi. Mazkur mashg‘ulotlarni asosiy talablaridan biri – talabalar institutni bitiruv kursiga qadar kamida II sport razryadiga va voleybol bo‘yicha sport hakami degan toifaga ega bo‘lishlari shart. Kurs yoki diplom ishi ixtisoslik fanida alohida o‘rin egallaydi. Talabalar turli mavzularda mazkur uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarni bosqichma-bosqich ishlab chiqib, bitiruv kursida himoya qiladilar.

Institutni bitiruvchi mutaxassis kasbi va ixtisosiga xos faoliyatlarni (qobiliyatlarni) o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim. Jumladan, yechiladigan masalalar, o‘tkaziladigan tadbirlar va barcha soxaga oid ishlarni oldindan «loyihalashtirish», rejalashtirish, andoza va nushalarini chizish, barcha shug‘ullanuvchi, tarbiyalanuvchi va umuman soxa kishilari bilan maqsadga muvofiq alohida aloqa bog‘lay olish; soxaga bog‘liq barcha tadbirlarni samarali tashkil qila olish; o‘z soxasi bo‘yicha bilim doirasini kengaytira borish va uni kasb yo‘nalishiga joriy qilish va boshqa shu kabi faoliyatlar mutaxassis yo‘ldoshi qilib belgilangan.

Adabiyotlar:

1. Айрапетьянц Л.Р., Пулатов А.А. Юқори малакали волейболчиларни тайёрлашда танловнинг ўрни. «ЖТ, спорт ва маънавият» тўплами, Т., 1995.
2. Железняк Ю.Д., Слупский Л.Н. Волейбол в школе. М., ФиС, 1989.
3. Ивойлов А.В., Железняк Ю.Д. Волейбол. Учебник для ИФК. М., ФиС, 1991.
4. Перльман М.Г. Специальная физическая подготовка. М., 1969.
5. Пулатов А.А. Волейбол. ЖТИ талабаларига мўлжалланган дастур. Иxtisoslik kursi. Т., 1993.
6. Пулатов А.А. Ҳаракатни аниқ ижро этишда вестибуляр анализаторнинг ўрни. «ЖТ, спорт ва маънавият» тўплами. Т., 1995.
7. Пулатов А.А. Ўргатиш услубиятига ноанъанавий ёндошиш масалалари. В сб. науч. конф. преподавателей и студентов. Т., 1994.